

GENRIX BYOLL IJODIDA INSONIYLIK VA VIJDON MASALASI

Xasanova Musallam Muminovna

O'zMU xorijiy filologiya fakulteti

Katta o'qituvchi

Email: hmmusallam@mail.ru

+99977011454

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nemis xalqining “Vijdoni” nomiga loyiq ko’rilgan adib, Nobel mukofoti sovrindori Genrix Byoll ijodida inson va vijdon masalalari, insoniylikning eng og’ir kunlarda qanday sinovdan o’tishi haqidagi qarashlari tadqiq etilgan. Tahlil ijodkorning ilk badiiy asarlari – qissa va novellalarda inson hayoti va uning jamiyatdagi o’rni hikoyasi qanday usullar bilan amalga oshirilgani va yozuvchining so’nngi yirik romanlarida hikoyanavislik uslubing va ekspressiyaning o’zgarishlarini qiyoslash orqali amalga oshirilgan.

Kalit so’zlar. *Genrix Byoll, nemis adabiyoti, urush, insoniylik, antimilitarizm, vijdon masalasi, XX asr jahon adabiyoti.*

ABSTRACT

This article analyzes the views of the writer and Nobel Prize winner Heinrich Böll, who was considered the “Conscience” of the German people, on the issues of man and conscience, and how humanity is tested in the most difficult times, in his work. The analysis was conducted by comparing the methods of narrating about a person’s life and his place in society in the author’s early works - short stories and novellas - and the changes in narrative style and expression in the writer’s later major novels.

Keywords: *Heinrich Böll, German literature, war, humanity, antimilitarism, the issue of conscience, 20th century world literature.*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются взгляды лауреата Нобелевской премии Генриха Бёлля, писателя, которого считали достойным звания «Совесть» немецкого народа, на вопросы человека и совести, а также на то, как человечность подвергается испытаниям в самые трудные времена. Анализ проводился путем сравнения методов повествования о жизни человека и его месте в обществе в ранних произведениях автора — рассказах и повестях — и изменений в стиле повествования и выразительности в более поздних крупных романах писателя.

Ключевые слова. *Генрих Бёлль, немецкая литература, война, гуманизм, antimilitarizm, вопрос совести, мировая литература 20 века.*

KIRISH

Ma'lumki, XX asr jahon adbiyotining eng yorqin namoyondalaridan biri, o'zining asarlarining sodda va xalqchilligi bilan ajralib turgan Geynrix Byollning hayoti davrlar burilishlariga, zamonaviy tarixning eng muhim voqealari kesimiga to'g'ri keldi. U muayyan bir tarixiy davr emas, balki ko'plab tizimli va strukturaviy o'zgarishlar, bir-biriga qarama-qarshi g'oyalar hukmron bo'lgan davrda yashab ijod qildi: 1917 -yilda so'nggi nemis kayzeri davrida Kyolnda tug'ildi, Veymar Respublikasida o'sib ulg'aydi, Gitler hukmronligi, urush yillarini boshidan kechirdi, so'ngra yangi G'arbiy Germaniya jamiyatini qayta tiklash va ba'zi jabhalarda tubdan yangi holda shakllantirishda faol ishtirok etdi. Mazkur o'zgarishlar yozuvchining ijodiy uslubiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. G.Byoll tizim va inson o'rtasidagi bog'liqlik nechog'lik katta ekanligini va jamiyatdagi yirik o'zgarishlar insonlar hayotiga tezlikda ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsata olishi, uning orzu-umidlari, rejalarini bimalol o'zgartira olishiga shaxsan guvoh bo'ldi.

Urushning ayanchli oqibatlarini va o'limning shafqatsizligi Byollning ilk asarlarining asosiy mavzusiga aylandi. Uning qahramonlari butun azob-uqubatlarga duchor bo'lgan avlodni aks ettirdilar, va uning ijod na'munalaridagi obrazlar ham xuddi Byollning o'zi kabi - anti-militarist va antifashist hisoblanadi. Ushbu qahramonlar urushning butun bir jamiyat va uning har bir a'zosiga olib keluvchi kulfatlarini o'z boshlaridan o'tkazgan qahramonlardir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Genrix Byuoll o'zining adabiyot olamidagi ilk qadamlarini aynan II Jahon Urushidan so'ng tashlay boshladi. Xususan, yosh adibning birinchi kitobi – “Poyezd o'z vaqtida keldi” romani 1949- yilda nashr etiladi. Aslida ishbu hikoya ikki yil avval, ya'ni 1947 -yilda gazetada bosib chiqarilgan edi. 1950-yillarda muallif o'zining ilk qisqa hikoyalar to'plamini taqdim etdi¹. Keyin esa adabiy do'konlar peshtaxtalarida “Qayerdasan, Adam” kitobi paydo bo'ldi. Asar urush, o'z hayoti uchun ma'suliyatni his qilish, kechikkan hayot tushunchalarini mohirona ko'rsatib berdi. Demak, Genrix Byollning dastlabki asarlari hayotiy aniqlik bilan to'ldirilgan va hikoya tilining soddaligi bilan ajralib turardi. Uning ko'plab romanlari kitobxonlar va tanqidchilar tomonidan yaxshi kutib olinadi va u “Qora qo'y” qissasi uchun o'tgan asr 50-yillarida milliy mukofot oladi².

Genrix Byoll ijodi va uning anti-militaristik, tinchliksevar g'oyalarining eng yorqin ifodasini “To'qqiz yarimda bilyard”, “Masxarabozning ko'zi bilan”, “Xonim bilan guruh portreti” romanlarida ko'rish mumkin. Ushbu romonlar nemis

¹ Magill, Frank N. ed. The 20th Century A-GI: Dictionary of World Biography, Volume 7. Routledge, 2013. - p. 349.

² Млечина И. В. Литература и «общество потребления». Западногерманский роман 60-х — начала 70-х годов. М.: Худож. лит., 1975. 238 с.

jamiyatining eng oddiy va turfa sinf vakillarining urush yillaridagi hayotini yanada aniqroq ko'rsatib bera oldi.

Ba'zi tanqidchilar Byollni nomukammal uslubda va mayda noaniqliklarda bir necha bor "tutib olishgan"³. Biroq, uning kuchi so'zlarning silliqiligi va nafisligida emas, balki zaif inson qalbini nozik tushunishida, chuqur axloqiy tuyg'ularni ochib bera olishida, syujetlarining o'ziga xos tuzilishida va kutilmagan badiiy vositalarni izlashda, unga individual taqdir va kundalik hayotni zamonaviy dunyoning eng dolzarb muammolari bilan bog'lash imkonini berdi. Byollda tafsilotlar, detallar va sanalar tarixiy, umumiy ahamiyatga ega va davr bilan o'zaro bog'langan. Yozuvchi uslubining o'ziga xos xususiyati tafsilotlarga intilish, leytmotivlar tizimi va ichki monologlarning ustunligi edi⁴.

Byoll yozuvchi o'z ijodi orqali dunyoni u yoki bu darajada o'zgartirishga qodir ekaniga amin edi⁵. Asarlari va siyosiy faoliyatining samimiyligi uchun Geynrix Böll ko'pincha "millatning vijdoni" deb atalgan, garchi uning o'zi bu unvonni yoqtirmagan⁶. Byoll hukumat, qonunchilik, huquq tizimi millatning vijdoni bo'lishga da'vat etilgan, ammo faqatgina Qalam ustalari bu vijdonni uyg'ota oladi, deb hisoblardi. U: "Urushdan keyin adabiyot va siyosat masalalarida gapirish va fikr yuritish, yozish va gapirish imkoniyatiga ega bo'lganimda, men hech qachon birini bir-biridan ajratmadim"⁷, deya ta'kidlardi. 1972 -yilda Genrix Byoll Tomas Mandan keyin Nobel mukofotini olgan nemis yozuvchisi bo'ldi. Mukofot unga "keng ko'lamli voqelikni obrazlar yaratishdagi yuksak san'at bilan uyg'unlashtirgan va nemis adabiyotining tiklanishiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilgan ijodi uchun"⁸ berildi.

XULOSA

Byoll o'z asarlarida urushning kundalik hayotini butun xunukligi bilan ko'rsatdi, urushni olib borish qahramonlik degan g'oyani rad etdi, urush romantizatsiyasini tanqid ostiga oldi. U o'z adabiy ijodining eng muhim asosini so'z bilan bog'liq o'ta mas'uliyatli asar deb hisoblagan, chunki aytilganda so'z jamiyatni harakatga keltiradi, ular harakatga qodir, urushga chaqirib, millionlab odamlarning o'limiga sababchi bo'lishi mumkin, bunga yo'l qo'yish yoki bermaslik yozuvchining vijdoni masalasidir⁹.

³ Cook Bernard A. Europe Since 1945: An Encyclopedia, Volume 1. Taylor & Francis, 2001.- p. 135.

⁴ Кацева Е. Уроки Генриха Белля // Вопросы литературы. — 2000. — № 2.

⁵ Млечина И. В. Литература и «общество потребления». Западногерманский роман 60-х — начала 70-х годов. М.: Худож. лит., 1975. 238 с

⁶ Рудницкий М. Л. Генрих Белль // История литературы ФРГ. М., 1980. С. 295

⁷ <https://www.nobelprize.org/prizes/literature/1972/boll/facts/>

⁸ <https://www.nobelprize.org/prizes/literature/1972/boll/facts/>

⁹ Орлова Р., Копелев Л. Писатель и совесть // «Новый мир». — 1967. — № 12. — С. 257.

Genrix Byoll nemis xalqining tarixiy aybini anglab, fashizm jinoyatlari uchun javobgarlik har bir nemis zimmasida ekanligini ko'rsatdi. U urush xotirasini va fashizm xavfini "zabt etmagan o'tmish" sifatida saqlash muhimligini ta'kidladi¹⁰. U fashistik ritorika bilan buzilmagan yangi adabiy til izlashga kirishdi. Asl stilistik usullardan foydalanib, u fashizmni nemislarning bir necha avlodining fojiasi sifatida ko'rsatdi¹¹.

Uning Yevropa jamiyati istiqbollari nisbatan o'sib borayotgan shubhalari yozuvchining satira, grotesk, karikatura va voqelikni fars va masxarabozlik sifatida ko'rsatishga moyilligini kuchaytirdi. U ommaviy axborot vositalari orqali iste'mol jamiyati axloqining tarqalishiga, shaxsiy erkinlikning cheklanishiga, jamoatchilik ongini manipulyatsiya qilishga qarshi chiqdi.¹² Byollning post-urush davridagi ijodi shaxs daxlsizligi va erkinligi masalalariga qaratilgan edi. Muallif uchun shaxs va uning qadr-qimmati doimi eng oliy qadriyatligicha qoldi.

Demak, yozuvchining ilk ijod na'munalarida oddiy syujetli hikoyalar asosiy o'rin tutgan bo'lsa, bora-bora asarlar kattalashib, urush tugaganidan keyin yuzaga kelgan ijtimoiy va ma'naviy muammolarga qamrab oldi. Mazkur asarlarda ijodkor asosan o'z boshidan kechirganlari ni badiiy obrazlar orqali hikoya qilib, Germaniyadagi urushdan keyingi dastlabki yillarning voqeliklarini yorqin tasvirlab bera oldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Conard Robert C. Understanding Heinrich Böll. — Columbia : University of South Carolina Press, 1992. - P.87
2. Cook Bernard A. Europe Since 1945: An Encyclopedia, Volume 1. Taylor & Francis, 2001.- p. 135.
3. Draugsvold, Ottar G., ed. Nobel Writers on Writing. McFarland, 2000. - p. 121
4. Magill, Frank N. ed. The 20th Century A-GI: Dictionary of World Biography, Volume 7. Routledge, 2013. - p. 349.
5. Кацева Е. Уроки Генриха Белля // Вопросы литературы. — 2000. — № 2.
6. Млечина И. В. Литература и «общество потребления». Западногерманский роман 60-х — начала 70-х годов. М.: Худож. лит., 1975. 238 с.
7. Орлова Р., Копелев Л. Писатель и совесть // «Новый мир». — 1967. — № 12. — С. 257.

¹⁰ Draugsvold, Ottar G., ed. Nobel Writers on Writing. McFarland, 2000. - p. 121

¹¹ Conard Robert C. Understanding Heinrich Böll. — Columbia : University of South Carolina Press, 1992. - P.87

¹² Фрадкин И. Генрих Бёлль — писатель, и больше чем писатель // Генрих Бёлль. Собрание сочинений. — М.: «Художественная литература», 1989. — Т. I. — С. 5—28.

8. Рудницкий М. Л. Генрих Белль // История литературы ФРГ. М., 1980. С. 295
9. Фрадкин И. Генрих Бёлль — писатель, и больше чем писатель // Генрих Бёлль. Собрание сочинений. — М.: «Художественная литература», 1989. — Т. I. — С. 5—28.
10. <https://www.nobelprize.org/prizes/literature/1972/boll/facts/>